



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

**BUYRUQ**

2023-yil “17” oktabr

Toshkent sh.

160 -sonli

**Vazirlikning Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga hayriya va homiylik hisobidan shakllangan mablag‘lar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga hayriya va homiylik hisobidan shakllangan mablag‘lardan foydalanishni tartibga solish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. “Vazirlikning Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga hayriya va homiylik hisobidan shakllangan mablag‘lar to‘g‘risidagi Nizom” 1-ilova hamda Suv xo‘jaligi vazirligiga qilingan hayriya va homiyliklarni qabul qilish hamda tasarruf qilishni belgilash bo‘yicha Ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Barcha xodimlar mazkur Nizom talablariga qat‘iy rioya etilishi uchun shaxsan javobgarligi belgilansin.

3. Ichki audit, komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi (Bahodirov) Nizomda belgilangan talablar bajarilishi, qat‘iy ijrosi taminlanishini nazorat qilib borsin.

4. Moliya-iqtisod va xo‘jalik faoliyati boshqarmasi (Alimardanov) Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga hayriya va homiylik hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobi yuritilishini va ulardan samarali foydalanilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari A.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



Sh.Xamrayev



Suv xo'jaligi vazirligining  
2023-yil 17-oktyabrdagi 160- sonli  
buyrug'iga 1-ilova

**Vazirlikning suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasiga xayriya va  
homiyluk hisobidan shakllangan mablag'lar to'g'risidagi  
NIZOM**

**1. Umumiy qoidalar**

Vazirlikning rivojlantirish jamg'armasiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan homiylik (beg'araz) yordami berilishidan qo'shimcha daromadlar olish hisobiga kengaytirish hamda xayriya ko'rinishidagi moddiy qiymatliklar maqsadga muvofiq deb hisoblansin.

Vazirlikning rivojlantirish jamg'armasiga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan tushgan mablag'lar quyidagilarga asosan sarflanadi:

- avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga;

- budjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;

- ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlarga;

- homiylik va beg'araz ko'rsatayotgan yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgalangan yo'nalishlarga;

Budjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarz mavjud bo'lsa, Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari tejab qolingan budjet mablag'lari doirasida ushbu qarzlarni to'lashga (ishlar, xizmatlar tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rni qoplangandan so'ng) sarflanadi.

Budjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va kreditorlik qarz mavjud bo'lmasa yoxud ushbu qarzar mazkur Tartibda belgilangan doirada va shartlarda to'langan taqdirda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlarning o'rni to'ldirilgandan keyin Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasining qolgan mablag'lari, jumladan:

- tushgan barcha mablag'larning kamida 50 foizi suv xo'jaligi budjet tashkilotlari moddiy-texnika bazani mustahkamlashga;

- ko'pi bilan 50 foizi suv xo'jaligi budjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

(homiyluk yordami, beg'araz yordam ko'rsatgan yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan boshqa maqsadlar ko'zda tutilgan bo'lgan xolatlar bundan mustasno)



## **2. Xomiylik mablag'larini sarflanishi nazorat qilinishi**

yuridik va jismoniy shaxslardan ko'rsatilayotgan xomiylikning sarflanishi va tasarruf etilishi yuzasidan Vazirlik markaziy apparatining ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

Mazkur ishchi guruhning vazifalari:

homiylkdan tushgan mablag'larni hamda beg'araz berilgan moddiy qiymatliklarni sarflanishi va tasaruf etilishi yuzasidan bayonnoma rasmiylashtiradi.

Moddiy qiymatliklarni tarqatilishi va foydalanishini;

Tushgan mablag'larni sarflanishini muntazam nazorat qilib boradi.

## **3. Korrupsiya holatlari bo'yicha:**

Vazirlikning suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasiga homiylik yordami, beg'araz yordam ko'rsatgan yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan tushgan mablag'larni sarflanishi hamda ishlatilishida korrupsion holatlarni yuz bermaslik maqsadida vazirlikning ichki audit va komplaens boshqarmasi, kasaba uyushmasi bilan birgalikda mablag'larni sarflanishi yuzasidan qo'shma bayoni rasmiylashtiriladi (bunda, homiylik yordami, beg'araz yordam ko'rsatgan yuridik yoki jasmoniy shaxslar tomonidan boshqa maqsadlar ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Vazirlikning ichki audit va komplaens boshqarmasining xayriya va homiylik mablag'larini sarflanishida majburiyatlari:

manfaatlar to'qnashuvi yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka sabab bo'ladigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa;

belgilangan vazifa va funksiyalarini bajarishda korrupsiya holatlarining, shu jumladan, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralarini ko'rish;

jinoyat alomatlari, korrupsiyaga doir huquqbuzarliklar alomatlari (shu jumladan, ichki audit tadbirini amalga oshirgan shaxslar tomonidan) aniqlangan taqdirda, tegishli choralar ko'rish (hujjatlashtirish, oldini olish choralarini ko'rish) va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga materiallarni yuborish yuzasidan vazirlik rahbariyatini xabardor qilish;

## **4. Yakunlovchi qismi**

Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.



Suv xo'jaligi vazirligining  
2023-yil 14-oktabrdagi 160 - sonli  
buyrug'iga 2-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligiga qilingan hayriya va  
homiylklarni qabul qilish hamda tasarruf qilishni belgilash bo'yicha ishchi  
guruh  
TARKIBI**

| <b>T/r</b>                   | <b>F.I.Sh.</b> | <b>Lavozimi</b>   |
|------------------------------|----------------|---|
| 1                            | A.Nazarov      | Vazirning birinchi o'rinbosari-Ishchi guruh rahbari   |
| <b>Ishchi guruh a'zolari</b> |                |   |
| 2                            | R.Qarshyiev    | Vazir o'rinbosari   |
| 3                            | D.Xodjiaxmedov | Vazir o'rinbosari   |
| 4                            | A.Bahodirov    | Ichki audit, komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i                 |
| 5                            | S.Alimardonov  | Moliya-xo'jalik va xo'jalik faoliyati boshqarmasi boshlig'i   |
| 6                            | M.Qurbonov     | Suv xo'jaligida kapital qurilish loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i |
| 7                            | M.Ibragimov    | Tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasi boshlig'i   |
| 8                            | X.Lapasov      | Strategik rejalashtirish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boshqarmasi boshlig'i           |
| 9                            | O.Abdullayev   | Nasos stansiyalari va elektr energiyasidan oqilona foydalanish bo'limi boshlig'i                      |
| 10                           | R.Kamilov      | Suv resurslari va suvdan foydalanish bo'limi boshlig'i  |
| 11                           | R.Sharopov     | Yuridik bo'lim boshlig'i  |
| 12                           | O.Xazratov     | Xalqaro aloqalar va Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'limi boshlig'i                               |
| 13                           | B.Xushvaqtov   | Moliya-iqtisod va xo'jalik faoliyati boshqarmasi bosh mutaxassisi- Ishchi guruh kotibi                |

**Izoh:** *Ishchi guruh a'zosi boshqa ishga o'tgan taqdirda, ushbu lavozimga yangi tayinlangan shaxs kiritiladi.*